Xojakbar Zaynabidinov	
BANK TIZIMIDA TAVAKKALCHILIK TUSHUNCHASI VA UNI BAHOLASHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI	950
Malikova Dilrabo Muminovna, Shakarova Kumush Faxriddin qizi	
REAL SEKTOR TARMOQLARINI KREDITLASHDA MOLIVAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH YO'LLARI.....	955
Savurbayev Zafar Abdumuminovich	
INVESTITSIYA JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA IQTISODIY BARQARORLIK OMILLARI VA ULARNING BOSHQARUVI	960
D. G. Bazarov	
YANGI O'ZBEKISTONDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK SOHASINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH HAMDA KOMPLEKS TIZIMLASHTIRISH	966
Abdullayev Javohir Abdumalik o'g'li	
XIZMATLAR KO'RSATISH KORXONALARIDA INNOVATSIYA FAOLIYATINI SAMARALI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH: IQTISODIY TAHLIL VA ISTIQBOLLI TAVSIYALAR	971
Xudayberdiyeva Nargiza Nizomiddin qizi	
MINTAQADA KICHIK BIZNES KORXONALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	976
Ergashev Jamshid Jamoliddinovich	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA INNOVATSION MAHSULOTLARNI ISHLAB CHIQRISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	981
Mirzayev Kobil Nosirjonovich	



PUL AYLANMASINI TASHKIL QILISHNING XORIJ TAJRIBASI VA O'ZBEKISTONDA FOYDALANISHNING IMKONIYATLARI.....	987
Gadoyev So'hrob Jumakulovich	
MARKETING VA TOVAR STRATEGIYALARINI ISHLAB CHIQISH	993
Ibadullayeva Sevara Allashukurovna, Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich	
PILLACHILIK SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSIYA VA DAVLAT KO'MAGIGA OID METODOLOGIK YONDASHUVLAR	998
Xudoykulov Mamarasul Radjabovich	
SURXONDARYO VILOYATIDAGI KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNING QURILISH SOHASIDAGI ULUSHINING TREND MODELLARI ORQALI TAHLILI	1005
Mamatkulova Xurshida Nasrullayevna	
THEORETICAL AND METHODOLOGICAL BASES OF TEXTILE PRODUCTS MARKET SEGMENTATION	1012
Ibaydullaeva Feruza Kholjuraevna	
O'ZBEKISTONNING JINOIY FAOLIYATDAN OLINGAN DAROMADLARNI LEGALLASHTIRISHGA QARSHI KURASH TIZIMIGA SUN'YI INTELLEKTNI INTEGRATSIYASI: BANK SEKTORIDA JORIY ETISHNING POTENSIALI VA TO'SIQLARINI BAHOLASH	1018
Rashidov Avazbek Raximovich	
UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR HISOBINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	1025
Shermatov Sirojiddan Xaydarovich	
РОЛЬ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В УСОВЕРШЕНСТВОВАНИИ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ РЕЗУЛЬТАТИВНОСТИ КОМПОНЕНТОВ ПРОЕКТА «БЕЗОПАСНЫЙ ГОРОД»	1029
Иминов Акбаржон Одилжонович	
XIZMAT KO'RSATISH TARMOQLARIDA BOSHQARUV SALOHİYATINI OSHIRISH	1034
Tleubergenov Raxat Shahibaevich	
THE ROLE OF ESG IN ADVANCING CORPORATE REFORMS IN UZBEKISTAN	1038
Zakhidov Azizbek Rustamovich	
O'ZBEKISTONDA MARKETING ROLI ORQALI IQTISODIY SIYOSATGA TA'SIRI.....	1043
Egamberdiyev Muzaffar	
DAVLAT BUDJETI JARAYONINI OPTIMALLASHTIRISH YO'NALISHLARI: XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI	1046
Nosirov Islombek Xurram o'g'li	
O'ZBEKISTONDA JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN DAROMAD SOLIG'INING PROGRESSIV STAVKASINI JORIY ETISH MEXANIZMI	1052
Pulatov Dilshod Xaqberdiyevich, Mamatkulov Salimjon Raxmonkulovich, Xujamuradov Abrorbek Ro'zimurat o'g'li, Otabekov Otajon G'ayrat o'g'li, Abdiyev Mansur Musurmonovich	
KORXONANING MODDIY BAZASI	1060
Ozodova Shahzoda Ulug'bek qizi	
FINTECH-STARTAPLAR VA TIJORAT BANKLARI HAMKORLIGI: SINERGETIK INTEGRATSIYA VA INNOVATSION EKOTIZIM SHAKLLANISHI	1064
Normo'minov Temurbek Sheraliyevich	
DAVLAT FUQAROLIK XIZMATCHILARINING MEHNATIGA HAQ TO'LASHDA YANGI YAGONA TARIF SETKASINI JORIY ETISH MASALALARI	1069
Oqiljonov Azizjon Olimjon o'g'li	
ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ДИСТАНЦИОННЫХ БАНКОВСКИХ УСЛУГ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ.....	1074
Хасилова Висола Шоохоровна	
HARD WORK, INDEBTEDNESS AND HOPE: A SOCIO-ECONOMIC LOOK OF MODERN LABOR	1078
Rakhmatullayev Sarvar Nazar o'g'li, Abdukarimova Muborak Sharaf qizi, Madrakhimova R. G.	
KORXONALARDA ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARI VA ULARNI HISOBGA OLISH.....	1085
Muradova Minavvar Izzatullayevna	
O'ZBEKISTONDA AKT SOHASINING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH DINAMIKASI: SAMARADORLIKNI BAHOLASH VA RAQAMLASHTIRISHNING MUAMMOLARI	1089
Salibaev Xabibullo Negmatullaxanovich	



TIJORAT BANK KREDIT PORTFELINING SIFAT BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	1094
G'aybullayev Odil Baxtiyarovich, Amanova Xurshida Inyatullaevna	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA O'ZINI-O'ZI BAND QILISH ORQALI KAMBAG'ALLIKNI PASAYTIRISH MASALALARI.....	1099
Azimova Hulkar Egamberdiyevna	
СОКРАЩЕНИЕ БЕДНОСТИ КАК СОЦИАЛЬНАЯ СОСТАВЛЯЮЩАЯ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ РЕФОРМЫ УЗБЕКИСТАНА.....	1103
Амирджанова Ситора Суннат кизи	
IQTISODIY JARAYONLARNI BOSHQARISHDA OPTIMALLASHTIRISH MODELLARI VA ULARNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI.....	1108
Ibragimov Nodir Nusriddinovich	
MARKETINGDAGI ISTE'MOLCHILAR MOTIVATSIYASIDA NAFLILIK NAZARIYALARIDAN FOYDALANISH.....	1113
Jalilov Jamshid G'anijonovich	
AHOLI ZICH HUDUDLARDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHINING HOZIRGI HOLATI TAHLILI ANDIJON VILOYAT MISOLIDA.....	1119
Karimov Abdusamat Ismonovich, Bo'stonova Nilufar Abdusmatovna	
CHAKANA SAVDO KORXONALARIDA ISTE'MOLCHILAR XULQ-ATVORINING SAVDO HAJMIGA TA'SIRINING TAHLILI.....	1125
Haydarova Mohichehra Xurram qizi	
BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA AXBOROT-KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALARNING O'RNI.....	1131
Haydarov Husanboy Ahmadjon o'g'li	
DAVLAT QARZINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI: PANEL MA'LUMOTLAR TAHLILI.....	1135
Sanakulova B. R., Jamolov M.M.	
AUDITNING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA HISOBOT SANASIDAN KEYINGI HODISALAR AUDITI.....	1142
Muydinov Erkin Djumaldinovich	
AUTSORSING FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARI.....	1148
Xamidov Anis Choriyevich	
BIOCHEMICAL CHANGES IN THE BODY DURING THE PERIOD OF FATIGUE AND REST AFTER WORK FOR ATHLETES.....	1153
Yoldasheva Roila Jumaevna, Ruyobova Shakhlo Anvar qizi	
KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHGA OID XORIJIY MAMLAKATLARNING ILG'OR NAZARIYALARI VA YONDASHUVLARI.....	1159
Muradova Nazira Raximjanovna	
XORAZMDA IQTISODIY BARQARORLIK MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1165
Xudayorova Munira Omonboy qizi	
QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA INNOVATSION BUXGALTERIYA HISOBINI JORIY ETISH.....	1170
Mirzayev Komiljon Abdullajonovich	
SOLIQ MA'MURCHILIGI MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI SOLIQ SOLISH BAZASINI KENGAYTIRISH IMKONIYATLARI.....	1175
Jononmirzayeva Dilafruz Ilhom qizi	
ИЗБАВЛЕНИЕ ОТ ИНФЛЯЦИИ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ЦИФРОВЫХ МЕТОДОВ И МАТЕМАТИЧЕСКИХ МОДЕЛЕЙ В СФЕРЕ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ.....	1180
Абидов А.А., Ахраров Б.С., Паязов М.М., Ахмедов А.М.	
O'ZBEKISTONDA YOSHLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISH VA INNOVATSION BIZNES TASHABBUSLARINI QO'LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMLARI.....	1185
Karimova Mavjuda Boxodirovna	
INVESTITSIYA MUHITINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI YUQORI TEXNOLOGIYALI TARMOQLARNI RIVOJLANTIRISH VA IQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH.....	1189
Raxmatova Nargizaxon A'zamxonovna	



INVESTITSIYA MUHITINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI YUQORI TEXNOLOGIYALI TARMOQLARNI RIVOJLANTIRISH VA IQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH



Raxmatova Nargizaxon A'zamxonovna

O'zMU, "Makroiqtisodiyot" kafedrası dotsenti v.b., PhD

ORCID: 0009-0007-0124-0291

Annotatsiya. Ushbu maqolada iqtisodiyot sohasida yuqori texnologiyali ishlab chiqarishni rivojlantirish, mamlakatda yuqori texnologiyali ishlab chiqarishni rivojlanish darajasi tahlil qilingan. Investitsiya va ishbilarmonlik muhitini yanada takomillashtirish, iqtisodiyotning real sektori korxonalarining moliyaviy barqarorligini oshirish hisobiga iqtisodiyotni diversifikatsiyalash va raqobatbardoshligini oshirish strategiyasini amalga oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: tashqi iqtisodiy faoliyat, eksport, import, savdo, innovatsion texnologiyalar, yuqori texnologiyali ishlab chiqarish, iqtisodiyotni texnologik rivojlanishi, investitsiya va ishbilarmonlik muhiti, davlat siyosati, eksport tovarlari.

Abstract. This article analyzes the development of high-tech production in the economy and the level of development of high-tech production in the country. Proposals have been developed to further improve the investment and business climate, increase the financial stability of enterprises in the real sector of the economy, implement a strategy for economic diversification, and enhance its competitiveness.

Key words: Foreign economic activity, export, import, trade, investment, innovative technologies, high-tech production, investment and business climate, public policy, export goods.

Аннотация. В данной статье анализируется развитие высокотехнологичного производства в экономике, уровень развития высокотехнологичного производства в стране. Разработаны предложения по дальнейшему улучшению инвестиционного и предпринимательского климата, повышению финансовой устойчивости предприятий реального сектора экономики, реализации стратегии диверсификации экономики и повышению ее конкурентоспособности.

Ключевые слова: внешнеэкономическая деятельность, экспорт, импорт, торговля, инвестиции, инновационные технологии, высокотехнологичное производство, инвестиционный и предпринимательский климат, государственная политика, экспортные товары.

KIRISH

Mamlakatni rivojlantirishning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari darajasini oshirish, investitsiya va ishbilarmonlik muhitini yanada takomillashtirish, iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiyalash hamda texnik-texnologik jihatdan qayta jihozlash bo'yicha qabul qilingan dasturlarning amalga oshirilishini jadallashtirish, iqtisodiyotning real sektori korxonalarining moliyaviy barqarorligini oshirish hisobiga iqtisodiyotni diversifikatsiyalash va raqobatbardoshligini kuchaytirish strategiyasini izchil amalga oshirish, shuningdek,



aholi farovonligi, hayot darajasi va sifatini oshirish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligi olib borilayotgan islohotlarga bog'liq. Iqtisodiyot sohasida yuqori texnologiyali ishlab chiqarishni rivojlantirish mamlakatimiz oldida turgan muhim ustuvor yo'nalishlardan biridir. Barcha tarmoqlar bevosita milliy ishlab chiqarish darajasi bilan bog'liq. Mamlakatda yuqori texnologiyali ishlab chiqarishning rivojlanish darajasi dunyodagi rivojlanayotgan davlatlar orasida raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish va ularni eksport qilish ko'rsatkichlari bilan tavsiflanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Milliy iqtisodiyot tarkibini takomillashtirishning metodologik asoslari va amalga oshirish yo'nalishlariga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar uzoq xorijlik B.Allen, S.X.Berri, H.L.Kranenburg, N.Mintsberg, R.A.Pitts kabi olimlarning ilmiy ishlarida o'rganilgan¹. Diversifikatsion jarayonlarning samaradorligini oshirishga doir ilmiy izlanishlar A.O.Grebenkova, A.A.Kofanov, Ye.A.Priyenko, V.A.Soldatkinlar tomonidan tadqiq etilgan bo'lib², milliy iqtisodiyot tarkibidagi o'zgarishlarning nazariy va amaliy jihatlar A.V.Vaxabov, G.X.Razikova, A.A.Mamanazarov va boshqa tadqiqotchilar tomonidan yoritilgan³.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada tizimli tahlil, mantiqiylik, induksiya va deduksiya, analiz va sintez, qiyosiy va selektiv tanlab tadqiq qilish kabi umumiy iqtisodiy usullar qo'llanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR


Jahon xo'jaligining globallasuvi sharoitida har qanday mamlakatda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishning jahon amaliyotini tahlil qilish asosida milliy iqtisodiyot tarkibini takomillashtirishga qaratilgan tarkibiy siyosatni amalga oshirish ustuvor ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiy rivojlanishning hozirgi bosqichida mamlakatimiz iqtisodiyotini tarkibiy jihatdan qayta qurish yo'nalishlarini belgilashda jahon amaliyotida tarkibiy islohotlarni o'tkazish borasida to'plangan ilg'or va boy tajribalarga tayangan holda, ularni mamlakatimiz amaliyotida ijodiy qo'llash imkoniyatlarini o'rganish ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb ahamiyatga ega.

O'zbekistonda islohotlarning yangi bosqichida "...sanoatda ishlab chiqariladigan texnologik mahsulotlar ulushini 25 foizdan 32 foizga yetkazish, eksport tarkibida tayyor va yarim tayyor mahsulotlar hajmini 3,3 barobar ko'paytirish, Yevropa davlatlariga GSP+ va boshqa tizimlari doirasida tayyor va texnologik mahsulotlar eksportini kengaytirish" bilan birga, ilg'or texnologiyalarga asoslangan sanoatni rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Milliy iqtisodiyotda tarkibiy siyosat borasida qator ijobiy natijalarga erishilganiga qaramasdan, ayrim tarmoq va sohalar o'rtasida turli darajadagi nomutanosibliklar saqlanib qolmoqda. Iqtisodiyotda jadal tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish va milliy iqtisodiyotni diversifikatsiyalash masalasi ilmiy-amaliy ahamiyatga ega dolzarb ilmiy muammolardan biri hisoblanadi.

Sanoati taraqqiy etgan mamlakatlar iqtisodiyoti tarkibidagi jadal o'zgarishlar qayta ishlash tarmoqlari uchun xosdir. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT)ning Yevropa iqtisodiy komissiyasi ma'lumotlariga ko'ra, milliy iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlar ko'rsatkichlari bo'yicha yetakchi o'rinni fan sig'imkorligi yuqori bo'lgan tarmoqlar egallamoqda. Yevropa Ittifoqi (YEI) mamlakatlarida amalga oshirilayotgan tarkibiy siyosatning ustuvor yo'nalishlari 1-rasmda keltirilgan (1-rasm).

- 1 Booz, Allen, Hamilton, Booz Allen, Hamilton. Diversification. A Survey of European Chief Executives / New York: Booz, Allen and Hamilton, 1985. – P. 378; Berry C.H. Corporate Growth and Diversification / Journal of Law and Economics. [Tekst] Vol. 14, № 2. October, 1971, P. 371–383; Pitts, Hopkins, 1982 Pitts R. A., Hopkins, H. D. Firm diversity: conceptualization and measurement. / Academy of Management Review. – № 7, 1982, pp. 620 – 629; Mintsberg N., Global S- Diversification and Diversification / California Management Review Fall. - 1994. - Vol. 3- P. 8 – 27; Kranenburg H. L. van. Diversification Strategy, Diversity and Performance among Publishing Companies / H. L. van Kranenburg. – 6th Media Economics Conference. – HEC Montreal, Canada. – 2004. – May 12–15p
- 2 Grebenkova O.A. Diversifikatsiya v agropromyshlennyy formirovaniyax: avtoref. dis. ...kand. ekon. nauk – Moskva, 2007. – 24 s.; Soldatkin V.A. Razvitiye diversifikatsionnoy deyatel'nosti v agrarnoy sfere ekonomiki: dis.kand. ekon. nauk: 08.00.05 / V.A. Soldatkin. – Sankt-Peterburg, 2009. – 189 s
- 3 Vaxabov A.V., Razikova G.X. "Modernizatsiya ekonomiki" O'quv qo'llanma. - T. »IQTISOD-MOLIYA» 2014-200 b., Mamanazarov A.A. Milliy boylik tarkibiy qismlarini diversifikatsiyalashning nazariy asoslari. // Iqt. fan. b-cha falsafa dok. (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoref. – T.: O'zMU. 2022 – 56 b;



1-rasm. YEI mamlakatlarida tarkibiy siyosatni amalga oshirish yo'nalishlari⁴

Jahon amaliyoti tahliliga ko'ra, taraqqiy etgan mamlakatlarda quyidagi tarkibiy o'zgarishlar qonuniyatlari kuzatiladi. Sanoatning qishloq xo'jaligiga nisbatan ustun darajada rivojlanishi qishloq xo'jaligining YAIMdagi ulushi kamayishida namoyon bo'ladi. Ushbu qonuniyat qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni jadallashtirish asosida aksariyat mamlakatlarda ushbu tarmoqda mehnat unumdorligining sanoatga nisbatan o'sish sur'atlari yuqoriligi bilan belgilanadi. Sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishning umumiy hajmida qayta ishlash sanoati ulushining qisqarishi xomashyoning qimmatlashuvi va resurs tejaydigan texnologiyalarning ishlab chiqarishga joriy etilishi bilan izohlanadi. Milliy xo'jalikning umumiy hajmida xizmat ko'rsatish sohasi ulushining ortishi iqtisodiy o'sishning ijtimoiy yo'naltirilganligining kuchayishi va aholi hamda tadbirkorlar tomonidan xizmatlarga bo'lgan talabning barqaror ortib borishi bilan bog'liqdir.

Jahonda o'rta yuqori daromadli mamlakatlarda YAIM tarmoq tarkibidagi qishloq xo'jaligi ulushi 4,3 %, o'rta quyi daromadli mamlakatlarda 9 %ni tashkil etadi, O'zbekistonda esa bu ko'rsatkich 23,5 %ni tashkil etmoqda. YAIMda ishlab chiqariladigan sanoat ulushi o'rta quyi daromadli mamlakatlarda 21 %, o'rta yuqori daromadli mamlakatlarda 23 %, O'zbekistonda esa 19 %ni tashkil etadi. O'zbekistonda 2030-yilgacha o'rta yuqori daromadli mamlakatlar qatoriga kirish maqsad qilinganligi sababli, iqtisodiyot tarkibini diversifikatsiyalash zaruriyatga aylanadi.

Investitsiya muhiti mamlakatlar o'rtasidagi investitsiya hamkorligini faollashtirish va jalb etilayotgan investitsiyalar hajmini oshirishdagi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Investitsiya muhiti — investitsiyalarni jalb etishga ta'sir ko'rsatuvchi ijtimoiy, iqtisodiy, moliyaviy, tashkiliy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlar majmuasidir.

Shuning uchun ham "O'zbekiston — 2030" strategiyasida milliy iqtisodiyotda investitsiyaviy jozibadorlikni yanada oshirish, qimmatli qog'ozlar bozorini jadal rivojlantirish, yalpi ichki mahsulotga nisbatan investitsiyalarning maqbul darajasiga erishish, xorijiy investorlarni faol jalb qilish bo'yicha alohida vazifalar belgilangan. Iqtisodiyotga sarflanayotgan investitsiyalarning aksariyat qismi qazib chiqarish sanoatiga yo'naltirilgani holda, aholining qariyb $\frac{1}{4}$ qismi band bo'lgan qishloq xo'jaligi hissasiga investitsiyalarning bor-yo'g'i 7,4 %i to'g'ri kelmoqda (1-jadval).

⁴ Muallif tomonidan tuzilgan. Manba: Investing in a smart, innovative and sustainable industry: A renewed EU industrial Policy strategy. European Commission. — Brussels, 13.09.2017. — 18 p. https://eur-lex.europa.eu/resource.html?uri=cellar:c8b9aac5-9861-11e7-b92d-01aa75ed71a1.0001.02/DOC_1&format=PDF.



1-jadval. Milliy iqtisodiyotga yo'naltirilgan investitsiyalar tarmoq tarkibining o'zgarishi, (jamiga nisbatan % hisobida)⁵

Tarmoqlar/yillar	2010	2015	2020	2021	2022	2024
	Asosiy kapitalga investitsiyalar	Asosiy kapitalga investitsiyalar	Asosiy kapitalga investitsiyalar	Asosiy kapitalga investitsiyalar	Asosiy kapitalga investitsiyalar	Asosiy kapitalga investitsiyalar
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	10,0	10,1	7,0	7,7	7,4	6,6
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	30,9	42,0	42,3	48,7	49,4	61,6
Sanoat	29,6	39,6	37,8	41,1	43,8	56,1
Qurilish	1,3	2,4	4,8	5,8	5,6	5,5
Xizmatlar	59,1	47,9		7,6	50,6	31,8
Tashish va saqlash	21,5	8,3	6,7	6,7	6,8	4,8
Ta'lim	2,5	2,2	2,6	3,1	3,0	1,3
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar	1,9	2,1	3,2	5,1	2,9	2,6
Boshqa turlari	33,2	35,3	5,7	6,2	37,9	23,1

Xorijiy kapitalni jalb etish uchun xorijiy investitsiyalarning daxlsizligini ta'minlash hamda investitsiyalarga oid masalalarni tartibga soluvchi xalqaro huquq normalariga rioya etish zarur. Shuningdek, xorijiy investorlar uchun ayrim iqtisodiy sohalar va hududlarda maxsus imtiyozlar hamda kafolatlar tizimini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, investorlarni himoya qilish va rag'batlantirishga qaratilgan hukumatlararo kelishuvlar tuzish orqali ikki tomonlama hamkorlik tizimidan keng foydalanish lozim.

Jumladan, mamlakatimiz iqtisodiyotiga jalb etilayotgan investitsiyalar tarkibida ham o'zgarishlar kuzatilmoqda. Tahlil etilayotgan davrda iqtisodiy subyektlar faoliyatiga jalb etilayotgan tashqi investitsiyalar tarkibida xorijiy investitsiyalar va kreditlarning ulushi 23,2 %dan 41,6 %ga yetdi. Shuningdek, davlat budjeti hisobidan amalga oshirilayotgan investitsiyalarning ulushi 29,2 %dan 7,8 %ga kamaygan bo'lsa, banklarning kreditlari va boshqa qarz mablag'larining ulushi mos ravishda 7,2 %dan 7,8 %ga ortgan (2-jadval).

2-jadval. O'zbekistonda asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar manbalari tarkibi (jamiga nisbatan % hisobida)⁶

Ko'rsatkich/yillar	2000	2010	2021	2022	2024
Asosiy kapitalga jalb etilgan investitsiyalar, jami	100,0	100,0	100,0	100,0	100
Shundan:					
Korxonalar va aholining o'z mablag'lari	39,1	52,5	38,0	40,9	24,1
Qabul qilingan mablag'lari	60,9	47,5	62,0	59,1	75,9
Sh.j.:					
davlat byudjeti	29,2	5,2	9,3	7,8	4,6
banklarning kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	7,2	9,0	8,0	7,8	2,6
xorijiy investitsiyalar va kreditlar	23,2	26,4	42,3	41,6	62,8

Mamlakatni rivojlantirishning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari darajasini oshirish, investitsiya va ishbilarmolik muhitini yanada takomillashtirish, iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiyalash hamda texnik-texnologik jihatdan qayta jihozlash bo'yicha qabul qilingan dasturlarning amalga oshirilishini jadallashtirish, iqtisodiyotning real sektori korxonalarining moliyaviy barqarorligini oshirish hisobiga iqtisodiyotni diversifikatsiyalash va raqobatbardoshligini kuchaytirish strategiyasini izchil amalga oshirish, shuningdek, aholi farovonligi, hayot darajasi va sifatini oshirish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligi olib borilayotgan islohotlarga bog'liq. Iqtisodiyot sohasida yuqori texnologiyali ishlab chiqarishni rivojlantirish

5 O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.


6 O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.



mamlakatimiz oldidagi muhim ustuvor yo'nalishlardan biridir. Barcha tarmoqlar bevosita milliy ishlab chiqarish darajasiga bog'liq. Mamlakatda yuqori texnologiyali ishlab chiqarishning rivojlanish darajasi dunyodagi rivojlanayotgan mamlakatlar orasida raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish va ularni eksport qilish bilan tavsiflanadi.

Sanoat tarmoqlari islohoti, tarkibiy o'zgartirish va diversifikatsiyalash, moddiy-texnik bazani mustahkamlash dasturlarining amalga oshirilishi respublika sanoatining rivojlanishiga xizmat qildi. 1995-yilda 1990-yilga nisbatan sanoat ishlab chiqarishi hajmining pasayishiga qaramasdan, 2000-yildan boshlab 1,2-marta (1990-yilga nisbatan), 2005-yilda 1,8-marta, 2010-yilda 3,0-marta va 2022-yildan 6,3-martaga o'sish kuzatildi.⁷

2023-yilda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqlar ulushi 1,5 %ni (2017-yilda 1,9 %), o'rta yuqori texnologiyali tarmoqlar 17,3 %ni (2017-yilda 21,2 %), o'rta quyi texnologiyali tarmoqlar ulushi 49,1 %ni (2017-yilda 28,8 %) va quyi texnologiyali tarmoqlar 32,1 %ni (2017-yilda 48,24 %) tashkil etdi. Umuman olganda, yuqori texnologiyali tarmoqlar, bir tomondan, ilg'or texnologiyalardan foydalanish bilan, boshqa tomondan esa ishlab chiqarilgan va sotilgan mahsulotning umumiy qiymatida qo'shilgan qiymat hamda ilmiy-tadqiqot ishlanmalari ulushining ortishi bilan izohlanadi (2-rasm).



2-rasm. Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotining texnologik tarkibi (jamiga nisbatan % hisobida)⁸

Turli sohalarining ishlab chiqarish qiymati qobiliyatini baholash uchun, odatda, quyidagi ko'rsatkichlar qo'llaniladi: ishlab chiqarish hajmiga nisbatan tadqiqot va ishlanmalar xarajatlari, patent faoliyati ko'rsatkichlari, yalpi qo'shilgan qiymat ulushi hamda xodimlarning umumiy sonidagi tadqiqotchilar ulushi (3-jadval).

3-jadval. Iqtisodiyotning texnologik rivojlanish darajasini baholovchi ko'rsatkichlar (jamiga nisbatan % hisobida)⁹

Ko'rsatkichlar/yillar	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023
Iqtisodiyotning yuqori texnologiyali (sh.j., o'rta yuqori texnologiyali) va ilmtalab tarmoqlarining YAImdagi ulushi, %	20,3	20,5	21,3	22,9	24,3	25,5	25,4	23,2	25,4
Iqtisodiyotning yuqori texnologiyali va ilmtalab tarmoqlarining YAImdagi ulushi, %	18,3	18,5	18,7	19,0	20,7	22,2	22,3	23,2	22,0
Yuqori texnologiyali ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat qo'shilgan qiymatidagi ulushi, %	1,7	2,1	2,2	1,6	1,9	2,1	2,8	2,1	1,5

⁷ O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida hisoblandi. Analiz makroekonomicheskix pokazateley Respubliki Uzbekistan za godoy nezavisimosti (1991-2016 gg.). – T., 2017.

⁸ O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzildi.

⁹ "O'zbekistonda ilm-fan va innovatsion faoliyat. 2018-2021, O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi" // – T., 2022. – 13 b.



Milliy iqtisodiyot tarkibini diversifikatsiyalash mamlakatda barqaror iqtisodiy o'sish, aholi turmush darajasini yaxshilash va iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida raqobatbardoshlik ko'rsatkichining oshishiga erishilishini ta'minlaydi. Buning uchun, avvalo, ishlab chiqarish tarmoqlarini modernizatsiya qilish, ularni texnik va texnologik jihatdan qayta qurollantirish talab etiladi. Bu esa, o'z navbatida, mamlakatimizda tovarlar ishlab chiqarish jarayonida foydalaniladigan barcha turdagi iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Fikrimizcha, keyingi yillarda mamlakatimiz milliy iqtisodiyotida islohotlarni jadallashtirish maqsadida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur. Xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribasini inobatga olgan holda loyihalarni amalga oshirish muddatlarini 15–25 yillik dasturlar asosida belgilash hamda milliy iqtisodiyotda investitsion me'yorni 35 %dan yuqori darajada ushlab turish muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakat sanoat tarmoqlarida asosiy fondlarni yangilash jarayonini jadallashtirish va ularning o'rtacha xizmat muddatini innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish nuqtayi nazaridan 8–10 yilgacha qisqartirish lozim.

Iqtisodiyot tarkibini diversifikatsiyalashning huquqiy-me'yoriy asoslarini mustahkamlash, milliy valyuta devalvatsiyasi darajasini kamaytirish zarur. Uning yuqori bo'lishi amalga oshirilayotgan investitsion loyihalar samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, investitsiyalarni tijorat banklarining uzoq muddatli kreditlash amaliyoti hisobidan moliyalashtirishni rivojlantirish va bu jarayonda tijorat banklari moliyaviy resurs bazasini mustahkamlash talab etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Booz Allen Hamilton. Diversification. A Survey of European Chief Executives. New York: Booz Allen Hamilton, 1985. – 378 p.
2. Berry C.H. Corporate Growth and Diversification. Journal of Law and Economics, Vol. 14, № 2, October 1971, pp. 371–383.
3. Pitts R.A., Hopkins H.D. Firm Diversity: Conceptualization and Measurement. Academy of Management Review, № 7, 1982, pp. 620–629.
4. Mintsberg N. Global S – Diversification and Diversification. California Management Review, Fall 1994, Vol. 3, pp. 8–27.
5. Kranenburg H.L. van. Diversification Strategy, Diversity and Performance among Publishing Companies. 6th Media Economics Conference, HEC Montreal, Canada, May 12–15, 2004.
6. Гребенькова О.А. Диверсификация в агропромышленных формированиях. Автореф. дисс. ... канд. экон. наук. Москва, 2007. – 24 с. / Солдаткин В.А. Развитие диверсификационной деятельности в аграрной сфере экономики. Дисс. канд. экон. наук, 08.00.05. Санкт-Петербург, 2009. – 189 с.
7. Вахабов А.В., Разикова Г.Х. Модернизация экономики. Ўқув қўлланма. Т.: IQTISOD-MOLIYA, 2014. – 200 б.
8. Маманазаров А.А. Миллий бойлик таркибий қисмларини диверсификациялашнинг назарий асослари. PhD диссертацияси автореферати. Т.: ЎзМУ, 2022. – 56 б.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi "“O'zbekiston — 2030” strategiyasi to'g'risida”gi PF-158-son Farmoni. URL: <https://lex.uz/docs/6600413>
10. European Commission. EUR-Lex Document. URL: https://eur-lex.europa.eu/resource.html?uri=cellar:c8b9aac5-9861-11e7-b92d-01aa75ed71a1.0001.02/DOC_1&format=PDF
11. World Bank. Manufacturing Value Added (% of GDP). URL: <https://data.worldbank.org/indicator/NV.IND.MANF.ZS>
12. Ўзбекистон Республикаси Миллий статистика қўмитаси. Ўзбекистон Республикасининг ижтимоий-иқтисодий ҳолати. Ташқи иқтисодий фаолият. – 216 б.
13. Вахабов А.В. Иқтисодиётда таркибий ўзгаришларни амалга ошириш ва барқарор иқтисодий ўсишни таъминлашнинг методологик жиҳатлари. Ўзбекистон иқтисодиётини институционал ривожлантириш: ютуқлар, муаммолар, ечимлар. Илмий-амалий анжуман материаллари. Т.: ТДИУ, 2016, б. 8–20.
14. Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси. Ўзбекистонда илм-фан ва инновацион фаолият. 2018–2021. Т.: 2022. – 13 б.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
